

**“MUSIQIY FAOLIYATNING BOLALAR PSIXOLOGIK
RIVOJLANISHIGA TA’SIRI”**

Saidova Nargiza Ismatulla qizi

Psixologiya kafedrası oqituvchisi

Yo'ldoshmirzayeva Charos Faxriddin qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada musiqiy faoliyatning maktab yoshidagi bolalar psixologik rivojlanishiga ta'siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Mashg'ulotda musiqaning emotsional, intellektual, motivatsion va ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga ko'rsatadigan psixologik ta'siri yoritilgan. Musiqiy mashg'ulotlar bolaning ijodiy fikrlashi, o'zini ifodalashi, ijtimoiy moslashuvi hamda ruhiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi ilmiy dalillar asosida asoslab berilgan. Olingan natijalar musiqiy faoliyat bolalar psixologik rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *musiqiy faoliyat, bolalar psixologiyasi, emotsional rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, ijodkorlik, kognitiv rivojlanish, musiqiy idrok.*

ABSTRACT: *This article analyzes the psychological impact of musical activities on the development of school-age children. It highlights the role of music in enhancing emotional regulation, cognitive abilities, creativity, motivation, and social adaptation. The research explores how participation in musical activities fosters self-expression, improves communication skills, and contributes to mental well-being. The findings show that musical activities play a crucial role in supporting children's comprehensive psychological development.*

Keywords: *musical activity, child psychology, emotional development, social adaptation, creativity, cognitive development, musical perception.*

Bolaning psixologik rivojlanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning shakllanishida turli omillar — oila, ta'lim muassasasi, muloqot, o'yin, san'at turlari muhim o'rin tutadi. San'atning boshqa turlaridan farqli ravishda musiqa bolaga bevosita emotsional-ruhiy ta'sir ko'rsatadi. Musiqiy faoliyat bolaning nafaqat estetik dunyoqarashini boyitadi, balki uning ruhiy barqarorligi, fikrlashi, tasavvuri, ijtimoiy xulq-atvori va motivatsiyasini rivojlantiradi.

Hozirgi kunda psixologik xizmat amaliyoti va pedagogika fanida musiqiy faoliyatning bolalar psixologik rivojiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan mashg'ulotlar ko'payib

bormoqda. Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy mashg'ulotlarning ahamiyati ortib, ular bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishda samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda.

Ushbu maqola musiqiy faoliyatning bolalar psixologik rivojlanishining emotsional, kognitiv, ijtimoiy va ijodiy jihatlariga ta'sirini kompleks yoritishga qaratilgan.

1. Musiqiy faoliyatning psixologik asoslari

Musika inson ruhiyatiga ritm, ohang, tembr, ton va dinamika orqali kuchli emotsional ta'sir ko'rsatadi. Psixologiyada musiqaning:

emotsional (kayfiyatni boshqarish),

kognitiv (xotira, diqqat, tafakkur),

motivatsion (faollikni oshirish),

ijtimoiy (muloqot, hamkorlik),

ijodiy (fantaziya, o'zini ifoda)

jarayonlarga ta'siri ilmiy isbotlangan.

Musiqiy faoliyat — kuylash, cholg'u chalish, raqs, ritmik harakat, musiqa tinglash — bolada murakkab psixologik jarayonlarning uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi.

2. Emotsional rivojlanishga ta'siri

Musika:

stressni kamaytiradi,

xavotirni pasaytiradi,

ijobiy kayfiyat shakllantiradi,

tajovuzkorlikni kamaytiradi,

o'z his-tuyg'ularini ifoda etish imkonini yaratadi.

Musiqiy mashg'ulotlar davomida bola o'z his-tuyg'ularini ohang orqali ifodalab, emotsional savodxonligini rivojlantiradi.

3. Kognitiv rivojlanishga ta'siri

Musika intellektual jarayonlarni faollashtiradi:

xotira kuchayadi (musiqiy matnlarni yod olish),

diqqat jamlanadi,

nutq ritmi va talaffuz yaxshilanadi,

mantiqiy fikrlash rivojlanadi,

idrok va tasavvur kengayadi

Tadqiqotlar musiqiy faoliyat bilan shug'ullangan bolalarda matematik va til ko'nikmalari yuqoriligi aniqlangan.

4. Ijtimoiy rivojlanishga ta'siri

Guruh bo'lib musiqiy mashg'ulotlarga qatnashgan bolalarda:

hamkorlik,
o'zaro hurmat,
muloqot madaniyati,
empatiya,
mas'uliyat

ko'nikmalari shakllanadi. Orkestr, xor yoki raqs jamoalarida bola jamoaga moslashadi, o'z o'rnini topadi va boshqalar bilan ijobiy munosabat o'rnatadi.

5. Ijodiy rivojlanishga ta'siri

Musika ijodkorlikning kuchli stimulyatoridir. Bola:

yangi ohanglar o'ylab topadi,
musiqiy improvizatsiya qiladi,
tasavvur qilganlarini ifodalaydi,
ijodiy qarorlar qabul qiladi.

Bu esa shaxsning kreativ salohiyatini rivojlantiradi.

6. Musiqiy faoliyatning terapevtik ta'siri

Psixologlar musiqani:

relaksatsiya

art-terapiya,

xulq-atvorni tarbiyalash,

emotsional muvozanatni tiklash

uchun qo'llaydilar. Ayniqsa, hissiy jihatdan beqaror yoki hiperfaol bolalar uchun musika juda samarali.

NATIJALAR

Mashg'ulot natijalari quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Musiqiy faoliyat bolalarning emotsional rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

2. Musika diqqat, xotira, tafakkur kabi kognitiv jarayonlarning faollashishini ta'minlaydi.

3. Guruhiy musiqiy mashg'ulotlar ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirib, bolalarni jamoaga moslashishga o'rgatadi.

4. Musiqiy faoliyat bolaning ijodiy salohiyatini kuchaytiradi.

5. Musika terapevtik vosita sifatida bolalarning psixologik holatini yaxshilashda samarali hisoblanadi.

6. Maktab va bog'chalarda musiqiy mashg'ulotlarning sifatli tashkil etilishi bolalar shaxsining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Musiqiy faoliyat bolalar psixologik rivojlanishida o‘ta muhim o‘rin tutadi. U nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki shaxsning emotsional, intellektual, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishini ta‘minlovchi psixologik stimulyator sifatida ham ahamiyatlidir. Musiqa o‘quvchi ruhiyatini tinchlantiradi, motivatsiyasini oshiradi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi va o‘z-o‘zini anglash jarayonini kuchaytiradi. Shu sababli ta‘lim muassasalarida musiqiy faoliyatga e‘tiborni kuchaytirish bolalar farovon psixologik rivojlanishi uchun zaruriy shartdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G. Shomuhamedov. Bolalar psixologiyasi asoslari, Toshkent, 2020.
2. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences, 2011.
3. Bruscia, K. E. Defining Music Therapy. Barcelona Publishers, 2014.
4. Sloboda, J. The Musical Mind, Oxford University Press, 2020.
5. Vygotsky, L. Psychological Development of Children.
6. O‘zbekiston maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘yicha metodik qo‘llanmalar.
7. AMTA – American Music Therapy Association rasmiy materiallari.
8. Levitin, D. This Is Your Brain on Music, 2019.
9. Piaget, J. Child Development Theory.
10. UNICEF School Mental Health guidelines, 2021.